XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 7-yanvar VII-15-7-8-108-K/26 Oltinsoy tumani

Oltinsoy tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-, 437-moddalariga asosan Oltinsoy tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i R.Boymirzayevning bergan hisoboti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi.**

1.Tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i R.Boymirzayevning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-, 429-, 437-moddalariga asosan Oltinsoy tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan 2025-yil 17-dekabrdagi 01-08341-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (M.Rasulov), tuman Soliq inspeksiyasi (R.Boymirzayev)larga:

-O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasida Oltinsoy tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 45 240 000 so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 402,53 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan tuman hokimligi Axborot xizmati bilan hamkorlikda chiqishlarni amalga oshirish va ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha

kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

-tuman xalq deputatlari Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

-yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman kesimida, tumanning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (U.Abdurasulov), “Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat va tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5.Xalq deputatlari Oltinsoy tumani Kengashining 2025-yil 18-fevraldagi “Oltinsoy tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning 2025-yil uchun mol-mulk hamda yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida”gi VII-5-38-8-108-K/255-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Yu.Hakimov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi **MAMATMURATOV A’ZAMAT KARAMATOVICH**

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2026-yil 7-yanvardagi
VII-15-7-8-108-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Oltinsoy tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2026-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsentlar miqdori

№	Mahalla nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun er solig‘i stavkasi	
		Koeffisent miqdori	Soliq so‘mmasi (1 ga uchun, so‘mda)	Koeffisent miqdori	Soliq so‘mmasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Jilibuloq MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
2	Madaniyat MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
3	Qusharcha MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
4	Qurama-1 MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
5	Qumpaykal MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
6	Qoratepa MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
7	Qiziltepa MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
8	Karsagan MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
9	Ipoq MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
10	Zardaqul MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
11	Nurafshon MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
12	Jobu MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
13	Marmin MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
14	Jiyanbobo MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
15	Gulchechak MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
16	Gulobod MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
17	Guliston MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
18	Obod Vaxshivor MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
19	Katta Vaxshivor MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
20	Bo'ston MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
21	Botosh MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
22	Bibizaynab MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
23	Beshbola paxlavon MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02

24	Barkamol avlod MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
25	Shodlik MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
26	Dug‘oba MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
27	Mingchinor MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
28	Qorliq MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
29	Mo‘minqul MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
30	Yangiqurilish MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
31	Yangiariq MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
32	Yakka-tut MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
33	Ekraz MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
34	Shoxcha MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
35	Shakar-qamish MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
36	Chinor MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
37	Mirshodi MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
38	Xujaipok MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
39	Xidirsho MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
40	Xalqobod MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
41	Xayrandara MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
42	Chep MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
43	Mustaqillik-10 yilligi MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
44	Tog‘ay Murod MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
45	Sohibkor MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
46	Sayrak MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
47	Paxlavon MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
48	Olmazor MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
49	Oqarbuloq MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
50	Ovchi MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
51	Obshir MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77
52	Obod turmush MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
53	Navruz MFY	0,80	36 192 000,00	0,80	322,02
54	Tuxtamish MFY	0,70	31 668 000,00	0,70	281,77

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan erlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi; tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun esa – ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi.